

INSON FAOLIYATIDA AXLOQIY MEZON VA ME'YORNI SHAKLLANTIPISH TAMOYILLARI

ПРИНЦИП ПРАВСТВЕННЫХ КРИТЕРИЕВ И ПРИНЦИП ФОРМИРОВАНИЯ ЛИЧНОСТИ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЧЕЛОВЕКА

THE PRINCIPLE OF MORAL CRITERIA AND THE PRINCIPLE OF FORMATION OF PERSONALITY IN HUMAN ACTIVITY

KAKHKHAROVA MATLYUBA,
INTERNATIONAL ISLAMIC ACADEMY OF
UZBEKISTAN,

doctor of philosophy, professor of the department
of "International relations and social sciences".

m.qaxxarova@iiu.uz;

11, A.Kadiri, Tashkent, 100011, Uzbekistan.

ABSATTOROV BAKHTIYOR,
UNIVERSITY OF SCIENCE AND TECHNOLOGIES

doctor of philosophy (PhD) dotsent
"Social-humanitar sciences"

mr.absattorov86@bk.ru;

71 Diydor Tashkent, 100011, Uzbekistan

DOI: 10.47980/IIAU/2024/2/4

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kun kishisidagi odob, xulq-atvor qoidalari asrlar davomida tarkib topib, takomillashib borganligi va uning o'ziga xos kumulyativ jihatlari asoslangan. Sodaroq qilib aytganda, insonning hatti-harakati, xulq-atvori va yurish-turishi hamda ularni doimo nazorat qila olish darajasi, kishilar o'rtasidagi muomala madaniyati munosabatlarning asosiy belgilari va harakatlantiruvchi indikatorlari tizimlashtirilgan. Maqolada axloqiy madaniyat va insonning o'z xatti-harakatlarining me'yorini anglash bosqichiga oid ilmiy xulosa munozaraga tashlangan bo'lib, inson o'z xatti-harakatini me'yorlarini tanlash jarayonidagi axloqiy tanlov masalasi muhokama qilingan. Axloqiy tanlov – insonning har qanday faoliyati sohasida muhim bosqich va bir vaqtning o'zida shaxs uchun jiddiy sinov. Uning mohiyati shundaki, individ ichki ishonchiga ko'ra, gohida avtomatik tarzda qadriyatlar tizimiga nisbatan g'oyalar va ularni aniq bir xatti-harakat yoki butun xulqiga qanday tatbiq qilishni o'zi uchun belgilab olishi bilan izohlanadi.

Maqolada huquqiy va axloqiy mezon va me'yorlarning ob'yektlari bir-biriga juda yaqinligi qiyosiy tahlil qilingan. Huquqiy normalar birinchi navbatda jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy munosabatlarni tartibga keltiradi ishlab chiqarishni tashkil etishning yuridik asoslarini, shuningdek,

ijtimoiy hayotning barcha jihatlarini barqarorligini ta'minlash, axloqiy mezon va me'yorlarning obyekti ham huquqiy normalarniki bilan bir xil, biroq ularning ta'siri insonlar o'rtasidagi munosabatlarni manzilli tartibga solishga qaratilganligi bilan asoslanadi. Bu ikki normativ tizimning xususiyatlari bir-birlaridan nafaqat tartibga solish obyektlari, balki uni amalga oshirish usullari bilan ham farq qilishi izohlangan.

Bundan tashqari yangi tipdagi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi jarayonida axloqiy mezon va me'yorlarning roli ortib borishiga alohida e'tibor qaratilgan. Mualliflar tomonidan bozor iqtisodiyoti sharoitida ayniqsa, ichki, o'z-o'zini boshqarish xatti-harakatlarda axloqiy talablarga asoslanish (tashqi regulyatorlarning, ya'ni, huquqiy, ma'muriy va tashkiliy normativlarning insonlar xatti-xarakatlariga ta'sirining susayishi hisobiga amalga oshmasligi) muhim ahamiyatga ega bo'lishi tahlili amalga oshirilgan.

Kalit so'zlar: Axloq, axloqiy mezon, axloqiy me'yor, huquq norma, axloqiy tanlov, etiket, axloqiy qadriyatlar, axloqiy mas'uliyat, axloqiy burch, ma'naviy inqiroz.

Аннотация. Данная статья основана на том, что на протяжении веков совершенствовались привычные, поведенческие правила современности. Проще говоря, систематизированы основные признаки и движущие индикаторы поведения человека, его поведения, а также уровень доступа к постоянному контролю за поведением. В статье рассматривается научный вывод о этической культуре и этапе осознания нормы поведения человека, обсужден вопрос нравственного выбора в процессе выбора норм поведения человека. Моральный выбор – важный этап в любой сфере деятельности человека и одновременно серьезное испытание для личности. Суть его заключается в том, что по внутреннему убеждению индивидуума идеи автоматически внедряются в систему ценностей, и решается вопрос о том, как их применять к конституативному поведению или всему поведению.

В статье дан сопоставительный анализ смежности правовых и нравственных критериев и объектов нормы. Правовые нормы основываются, в первую очередь, на том, что при обеспечении юридических основ организации производства, а также стабильности всех аспектов социальной жизни, этический критерий и объекты норм сходны с правовыми нормами, но их определение направлено на адресное регулирование отношений между инстанциями. Описано, что особенности этих двух нестандартных систем отличаются друг от друга не только объектами регулирования, но и элементами его реализации.

Кроме того, особое внимание уделяется возрастанию роли моральных критериев и норм в процессе формирования социальных отношений нового типа. Авторами проведен анализ и выявлено, что в условиях рыночной экономики важно основываться на нравственных требованиях, особенно во внутренних, самоуправляемых действиях (то есть нереализуемость внешних регуляторов, имеется в виду правовых, административных и организационных нормативов, за счет ослабления влияния на человеческое поведение).

Ключевые слова: Этика, этический критерий, моральные нормы, нормы права, моральный выбор, этикет, нравственные ценности, моральная ответственность, моральный долг, духовный кризис.

Annotation. *This article justifies the fact that the rules of etiquette and behavior of today's people have been improved over the centuries. This article is based on the fact that the have been formed and improved over the centuries and their unique cumulative aspects. In simpler words, human behavior, etiquette and the level of constant control over them, the main signs and driving indicators of cultural relations between people are systematized. The article discusses the scientific conclusion about ethical culture and the stage of awareness of the norms of human behavior, and discusses the issue of moral choice in the process of choosing norms of human behavior. Moral choice is an important stage in any field of human activity and at the same time a serious test for the individual. Its essence lies in the fact that, according to the inner conviction of the individual, ideas are automatically introduced into the value system and how to apply them to specific behavior or whole behavior.*

The article compares the fact that the objects of legal and ethical criteria and standards are very close to each other. Legal norms primarily regulate social, economic, and political relations in society, provide the legal basis for the organization of production, as well as the stability of all aspects of social life, while the object of moral criteria and norms is the same as that of legal norms, however, their influence is based on the fact that they are aimed at regulating relations between people. It is explained that the characteristics of these two normative systems differ from each other not only in the objects of regulation, but also in the methods of its implementation.

In addition, special attention is paid to the increasing role of moral criteria and norms in the process of formation of new type of social relations. According to the authors, in the conditions of the market economy, it is especially important to be based on ethical requirements in internal, self-directed behavior (not implemented due to the weakening of the influence of external regulators, that is, legal, administrative and organizational regulations on human behavior) significance analysis was performed.

Key words: *Morality, moral criterion, moral norm, law norm, moral choice, etiquette, moral values, moral responsibility, moral duty, moral crisis.*

KIRISH

Axloq – inson faoliyatini muvofiqlashtiruvchi hamda, olamni ma'naviy-amaliy anglash vositasi hisoblanadi. Jamiyat muhitida axloqiy normalar, qadriyatlar alohida ahamiyatga molik bo'ladi. Shu sababdan bunday jamiyat sharoitida axloq normalariga rioya etish shaxs faoliyatining muhim talablaridan, mezonlaridan biri sanaladi, ulardan har qanday

chekinish qattiq qoralanadi, aksar hollarda ijtimoiy tanbehlar va jazolarga sabab bo'ladi. Shu bois ham har bir shaxs o'zi o'zlashtirayotgan, maqbul deb torgan bilimlari, qadriyatlari va g'oyalarining axloqiy jihatlariga e'tibor berishi, ularning umume'tirof etilgan axloqiy normalarga zid bo'lmasligini ta'minlashi zarur. Aynan shuning uchun ham u turli bilim, qadriyat va g'oyalarni axloq normalari, insonparvarlik tamoyillari prizmasidan o'tkazib tahlil qilganidan, ularning mazkur norma hamda tamoyillarga mosligiga amin bo'lganidan keyingina o'zlashtiradi.

Axloqiy mezon va me'yor amal qilinishida yaqqol ko'zga tashlanadigan munosabatlardan biri, bu – etiket (Шер, 2010). Etiket – takallufning mayda-chuyda jihatlarigacha ishlab chiqilgan odob qoidalari sifatida ijobiy, kishining ko'zini quvontiradigan munosabat hodisasidir. Etiketning qamrovi keng, u ma'lum ma'noda xalqaro miqyosda qabul qilingan muomala qonun-qoidalarini o'z ichiga oladi. U ko'ppiq insonning tashqi madaniyatini, o'zaro munosabatlardagi o'zini tutish qonun-qoidalarining bajarilishini boshqaradi. Muomala odobida inson o'z munosabatlariga ijodiy yondashsa, ya'ni bir holatda bir necha xil muomala qilish imkoniga ega bo'lsa, etiket muayyan holat uchun faqat bir xil qoidalashtirib qo'yilgan xatti-harakatni taqozo etadi. Etiketning yana bir alohida jihati bor: unda odob bilan go'zallikning uyg'unligini ko'rishimiz mumkin, qat'iy odob qonun-qoidalari chiroyli xatti-harakatlar vositasida amalga oshiriladi (Шувалова, 2018).

Dolzarb masalalarni qamrab olgan zammonaviy etikaning konsepsiyalari quyidagi yo'nalishlarda tadqiq qilishi talab etuvchi bir qator axloqiy masalalarni oldimizga qo'yimoqda. Jumladan, meta-etika – barcha axloqiy munosabatlar tizimini tekshiruvchi va axloq nazariyasi va tanqidining mohiyatini ochib beruvchi, me'yoriy etika – tartibga soluvchi va turli axloqiy qadriyatlarni baholovchi, to'g'ri yoki noto'g'ri xatti-harakatlarni o'lchovini belgilovchi, tavsifiy etika – bir nechta axloqiy tizimlarni taqqoslab, ulardagi o'lchov mezonlarni belgilab beradigan yo'nalish sifatida ba'zan qiyosiy etika sifatida tan olinadi. Amaliy etika – axloqiy nazariya va o'lchov me'yorlarni real hayotda qo'llashni, bioetika – biologiya va tibbiyotdagi yutuqlardan kelib chiqadigan bahsli axloqiy masalalarni o'rganadi. Geosiyosiy etika – axloqiy mezon va me'yorlarning xalqaro standartlarini o'rganadi. Biznes etikasi (kredit – halollik etikasi) – biznes muhitida duch keladigan axloqiy tamoyillar va muammolarni o'rganuvchi bozor munosabatlarining ma'naviy-axloqiy mezonlarini belgilab beradi. O'zaro munosabatlar etikasi insonlar, inson va jamiyat yoki inson va atrof-muhit munosabatini o'rganadi.

USLUBLAR

Inson o'z atrofidagi odamlar ta'sirida kamolotga erishadi. Zotan inson jamiyatda yashab turib, jamiyatdan chetda turolmaydi. Tabiat bilan doimiy muloqotda bo'lish ham shaxsning axloqiy madaniyati rivojlanishining zaruriy shartidir. Yer, suv, havo, o'simliklarga mas'uliyat bilan qarash asosida inson jamiyatda tutgan o'z o'rnini anglab yetadi. Ana shu his o'zi tug'ilib o'sgan yerga, ona tabiatga muhabbatni keltirib chiqapadi. Tabiat o'z holicha go'zal bo'libgina qolmasdan, balki inson o'z aql – idroki, tabiatga bo'lgan munosabati bilan o'ziga xoslikka ega.

Insonni tabiat bilan munosabati shaxs axloqiy madaniyatini rivojlanishining zaruriy shartlaridan biri hisoblanib, yer, suv, havo va o'simlik dunyosiga nisbatan sub'ektiv (oqilona foydalanish, tejamkoplik, ehtiyotkorona) munosabat geoetikaning axloqiy me'yorlari hisoblanadi. Bu esa insonlarning tabiatga nisbatan ijobiy munosabatini shakllantiradi (Идоль, 2016). Natijada, jamiyat taraqqiyoti va farovonligiga xizmat qiluvchi milliy axloq normalariga mos bo'lgan iqtisodiy normalar, ijtimoiy tamoyillar, siyosiy qoidalar, ma'naviy qadriyatlar pragmatik xarakterga ega bo'lsada, milliy axloq normalaridan yiroq bo'lgani bois ayrim holatlarda sust qabul qilindi va qilinmoqda. Biroq bu bilimlar millatimizning o'zaro yordam, muhtojlarga oqibatlilik, mehribonlik, hamjihatlik kabi axloqiy normalariga zid edi. O'zbekistonda shaxs turli qadriyatlarni ham axloq mezonlari asosida tanlaydi va o'zlashtiradi.

Shuningdek, yuqoridagi sanab o'tilgan omillardan tashqari axloqiy mezon va me'yorni shakllantiruvchi, "San'at" dunyoqarashni o'zgartiruvchi yetakchi ijtimoiy hodisadir. San'at insonning hissiyotlari va tuyg'ular olamiga kirib boradi. Shuning uchun bo'lsa kerak, san'at barcha davrlarda insonga hamroh bo'lib kelgan. Shu bois hozirda madaniyat va san'at sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash hajmi 2017 yilga nisbatan 5 karra oshib, 2023 yilda bu maqsadlar uchun 712 milliard so'mdan ortiq mablag' yo'naltirilgan (Ш.Мирзиёев, 2023 23-декабрь). Albatta, san'at keng ma'noli tushuncha, u inson mehnati, aql-idroki, shuuri bilan yaratilgan, vujudga kelgan, ijod qilingan predmet va ob'ekt tizim, struktura va komponentlar birligi. San'at inson faoliyatining ijodkorlik turini anglatib, har bir san'at asarida shaxsning o'ziga xos iste'dodi malakasi va albatta iqtidori namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham har qanday san'at asari va axloqiy g'oyasining bosh mavzusi ham iste'molchisi ham inson hisoblanadi. Sababi san'at insonning maqsad-manfaatlari, fikr-mulohazalari, muhabbati va nafrati, his-tuyg'ulari, ichki kechinmalari nuqtai nazarini aks ettirs, axloq inson ijtimoiy aloqalari va munosabatlarining mag'zigasingib ketadi. Hayotda

axloq-odobga aloqador bo'lmagan biror voqea-hodisa sodir bo'lmaydi. Insonlarning o'zaro munosabatlari va muomalalari axloqning bevosita ob'ekti bo'lib xizmat qiladi. Har bir haqiqiy san'at asarida asosiy ziddiyat sifatida axloqiy kategoriyalar hususan, ezgulik bilan yovuzlikning kurashi aks etadi, insonparvarlik, haqiqatgo'ylik, to'g'rilik, adolat, muhabbat, sadoqat singari fazilatlar tarannum etiladi, taqdir, o'lim va o'lmaslik, hayotning mazmuni, baxtga erishish singari axloqiy ehtiyoj va talablar kabi muammolar o'rta tashlanadi. Shu bois ham har bir san'at asarining mazmun mohiyatiga axloqiy ideal, ma'naviy ideal masalasi singdirilishi bilan birga, insoniyat ma'naviy ehtiyojini qondirishda mazkur ideallar muammosi tadqiqi dolzarb masala hisoblanadi. Masalan, san'at turlarida ifodasini torgan «axloqiy janrlar» (xalq og'zaki ijodida ham, yozma adabiyotda ham uchratish mumkin: maqol, matal, hikmatlar, hikoyatlar, rivoyat, masal, pandnoma va h.k. shular jumlasidandir)da jamiyat muhitini axloqiy me'yorlashtirishga xizmat qiluvchi ma'naviy-axloqiy ideal obrazlari, sifatlari, fazilatlarini va tartib qoidalarini kuzatish mumkin.

Umuman olganda, axloq masalasi, axloqiylik talablarini o'zida ifoda qilmagan san'at turining bo'lishi mumkin emas, barcha san'at asarlari uchun axloqiylik muhim asos hisoblanadi. Hatto fojea va illatlarni targ'ib qiluvchi materiallarda ham etnoetika, etnopedagogikaning bosh maqsadi bo'lgan "odobni beodobdan o'rgan", "birni ko'rib fikr qil, birni ko'rib shukur qil" uslubi asosidagi yondashuvga ko'ra axloq fenomenini singdirish masalasi yotadi. Chunki, «g'oyadagi axloqsizlik shaxs tafakkuri, insoniy prinsiplarga o'ta salbiy ta'sir ko'rsatadi, insonni tanazzulga yetaklaydi. Bunday shaxslar jamiyat va odamlarga munosabatda yakkalanib qoladi, ikkiyuzlamachilik qilishga o'rganadi» (Бойтемирова, 2009). Ayni paytda san'at axloq targ'ibotchisi, axloqiy madaniyatni shakllantiruvchi eng qulay vosita sifatida ham namoyon bo'ladi. Ayniqsa, hozirgi murakkab, tahlikali bir zamonda shaxs axloqiy kamolotida san'atning o'rni muhim bo'lib, uning ijtimoiy vazifasi inson qalbiga, uning ongu shu'uriga yo'l topish, uning (sifatli medioteka) qudratli ta'sir kuchidan samarali foydalanishdir. Chunki, ularning g'oyasida o'z ifodasini torgan Vatan va xalq manfaati, ezgulik va insoniylik tamoyillari, ularni badiiy mahorati tom ma'noda jamiyat a'zolarini, ayniqsa yoshlarni axloqiy kamoloti va ma'naviy yuksalishga xizmat qiladi.

NATIJALAR

Jamiyat rivojining tarixida ijtimoiy mehnat taqsimotining paydo bo'lishi mehnatning bir tupi bilan

band bo'lgan kishilar guruhlarining kasb-hunar jihatidan ajralib chiqishiga va shunga muvofiq ravishda turli xil mutaxassisliklarning vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

Huquqiy va axloqiy mezon va me'yorlarning ob'ektlari bir-biriga juda yaqin va shuning bilan birga juda ko'p holatlarda mos tushadi. Huquqiy normalar birinchi navbatda jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga keltiradi ishlab chiqarishni tashkil etishning yuridik asoslarini, shuningdek, ijtimoiy hayotning barcha jihatlarini barqarorligini ta'minlaydi.

Axloqiy mezon va me'yorlarning ob'ekti ham huquqiy normalarniki bilan bir xil, biroq ularning ta'siri insonlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga keltirishga qaratilgan bo'ladi. Bu ikki normativ tizimning xususiyatlari bir-birlaridan nafaqat tartibga solish ob'ektlari, balki uni amalga oshirish usullari bilan ham farq qiladi.

Huquqiy normalar taqiqlovchi, ruxsat etuvchi va majburlovchi xususiyatlar bilan xapakteplanadi va uni amalga oshirishda davlat hokimiyati organlari kuchiga tayanadi. Axloqiy mezon va me'yorlar ham taqiqlovchi va majburlovchi funksiyalarni bajaradi. Axloqiy normaning tuzilishi shundayki, taqiq talab etilgan xatti-harakatning namunasi yoki aksincha. Taqiq va namuna talab etilgan xatti-harakatlarning ikki tomoni, ruxsat etilgan yoki ruxsat etilmagan xatti-harakatlar o'rtasidagi chegara deb e'tirof etish mumkin. Axloq normalari, huquqiy normalardan farq qilib, axloqiy mezon va me'yorlar buyruq beruvchi shakllarda bo'lsa-da, majburlovchi kuchga ega emas, ularning harakatlantiruvchi kuchi jamoatchilik fikriga, shuningdek, insonlarning axloqiy munosabatlarini qanchalik darajada anglaganligiga bog'liq bo'ladi.

Axloqiy mezon va me'yorlar inson ongining motivlariga yo'naltirilgan bo'ladi. Nima uchun huquq va axloq bir taptibga soluvchi ob'ektning bir-biridan farq qiluvchi turli tomonlariga yo'naltirilgan bo'ladi. Nima uchun huquq normasi o'zining ta'sirini amalga oshirishda shaxsga tayanadi, axloqiy norma esa ongga asoslanadi. Bozor munosabatlari sharoitida, huquqiy demokratik davlat barpo etish jarayonida, fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish bilan bog'liq muammolarni hal etishda shaxsning axloqiy yetuklik darajasi jamiyat barqarorligini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Huquqiy va axloqiy mezon va me'yorlar ijtimoiy ongning turli shakllariga mansub bo'lsa-da, ularning mazmunini, bir-biridan farq qilsa-da, ular birgalikda jamiyatdagi munosabatlarning izchil, barqaror rivojlanishi ta'minlaydi. Biroq huquqiy va axloqiy normalarni diqqat bilan tahlil qiladigan bo'lsak, axloqiy mezon va me'yorlar huquqiy normalardan farq qilib, o'z adresiga (aynan yo'naltirilgan) ega emas, ya'ni, shaxssiz

xarakterda bo'ladi. Bu demak konkret insonga emas, balki umuman insonlarga murojaat qiladi. Shuning uchun ham axloqiy mezon va me'yorlar umumiylik xususiyatiga ega bo'ladi.

Axloqiy mezon va me'yorlarning shaxssizlik xarakteri ularning sub'ektlari yo'q ekan, deb hisoblashga asos bo'la olmaydi. Chunki har qanday axloqiy talab ma'lum sub'ektlardan kelib chiqadi, bu sub'ekt inson, guruh yoki jamiyat bo'lishi mumkin.

Endi sanksiya haqida biroz to'xtalib o'tsak, sanksiya normalar orqali aniqlanmaydi, balki hayot shart-sharoitlari asosida vujudga keladi. Ular axloqiy ongning bir butun darajalarini aks ettirib, ijtimoiy-iqtisodiy omillar va uning taraqqiyotini ta'minlash uchun shart-sharoit yaratib beradi. Ta'qiq va namunaning o'zaro munosabati axloqiy talabning ikki tomoni hisoblanadi. Bugungi kunda jamiyatimizga ijtimoiy nazorat va jamoatchilik nazorat kabi atamalar kirib kelib, nazorat qilishning o'ziga xos turlariga aylanib bormoqda. O'z davrida mashhur pozitivist faylasuf Gerbert Spenser (Я.Гилинский, 2015) "Axloq fanining asoslari", «Tarbiya» kabi asarlarida ijtimoiy nazorat masalasiga e'tibor qaratgan. Ma'lumki, ijtimoiy nazorat bu – tekshiruv, jamiyat va ijtimoiy guruhlarining shaxsga uning xulq-atvorini to'g'rilash, muayyan umumiylik me'yorlarida umumqabul qilingan qoidalarga muvofiqqlashtirish maqsadida shaxsga ta'sir o'tkazish usullari tizimidir. Ijtimoiy nazorat ijtimoiy tizim barqarorligiga erishish va uni saqlashga hamda uning ijobiy rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Albatta ijtimoiy nazorat mazmuniga chegara qo'yish nisbiy tushuncha. Bir qator nazariyotchi olimlar tomonidan nazoratning bevosita hamda yakuniy maqsadlarini ko'rsatib o'tiladi. Xususan, R.A.Larerning fikricha, ijtimoiy nazorat – individning madaniyatni o'zlashtirish jarayonini ta'minlovchi va avloddan avlodga o'tuvchi vosita deb qaraladi. Eng samaralisi guruh tomonidan amalga oshiriladigan ijtimoiy nazorat guruh a'zolarida o'zini-o'zi nazoratni shakllantiradi va ularga mazkur guruh va umuman ijtimoiy fikrda muvaffaqiyatli uyg'unlashishga imkon beradi (M.Саидов, 2007). Olimlarning fikricha, nazoratning bevosita maqsadi – jamiyatdagi sub'ektlarning munosabatlarida hamda faoliyatning belgilangan qonun-qoidalarida o'z ifodasini topadi. Shu jihatdan ijtimoiy nazorat faoliyatini samarali tashkil etishga xizmat qiladigan befarqlikni jilovlab, daxldorlik hissini shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratadi. Ijtimoiy nazoratning uch shakli mavjud:

- oddiy (asosan majburlovchi) sanksiyalar;
- jamoatchilik fikri;
- ijtimoiy institutlar (M.Саидов, 2007).

Ijtimoiy nazorat tartibga solish sohasi va jamiyatda mavjudligiga qarab quyidagi turlarga bo'linadi:

- oila nazorati;
- jamoatchilik nazorati;
- diniy nazorat;

- davlat nazorati va shunga o'xshash nazorat institutlari. Davlat nazorati yuqoridagi tasnifda asosiy o'rinni egallaydi. Ya'ni, qonunchilikning buzilishi, muayyan me'yoriy huquqiy asoslarni talablarini bajarilishi, kishilar va fuqarolarning huquqlari erkinliklari va qonuniy manfaatlarini kamsitilishining oldini olishga yo'naltirilgan davlat idoralari, jamoatchilik uyushmalari (tashkilotlar) faoliyatidir (nauchniestati.ru). Davlat nazorati – (huquqda) davlat hokimiyatini amalga oshirishning davlat organlari chiqaradigan qonunlarga va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga rioya etilishini ta'minlaydigan shakllaridan biridir (Таджиханов, 2001).

Ijtimoiy nazoratning mazmunida avvalo, jamiyat muhitida ham ma'nan, ham iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, mo'tadillikni mustahkamlash maqsadida shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish, qat'iy tartib qoida, intizomiylik, ijtimoiy qabul qilinadigan xulq-atvor modellarining saqlash kabi ijtimoiy tizimning samarali ishlashini ta'minlaydigan jarayonlar va mexanizmlar tizimi o'z ifodasini topadi. U inson xulq-atvorini me'yoriy tartibga solish orqali amalga oshiriladi va ijtimoiy me'yorlarga rioya qilishni ta'minlaydi.

Ijtimoiy nazoratni amalga oshiruvchi institut sifatida mahalla va oilalarda shaxs xulq-atvorining xatti-harakatlariga mahalla jamoasi va oila a'zolarining munosabati o'ta nozik nazorat turlaridan biri bo'lib, ham rasmiy va norasmiy boshqariladi, monitoring va nazorat qilinadi. Xususan, ogohlantirish, muhokama qilish, (shaxsni nojo'ya qilingan harakat uchun oila va mahalla jamoasi tomonidan uyaltirish, tarbiyaviy yo'naltirish, xulq-odobini korreksiyalash, yoxud ijobiy, fazilatli hatti-harakatlar va faoliyati uchun shaxsning faoliyatini yoki ishini rag'batlantirish, maqtovlar, minnatdorchilik, e'tirof etish, kasbiy, ilmiy yutuqlar uchun ma'naviy va moddiy mukofotlar kabilardir. Ular ichida muhim o'rin tutadigan ijtimoiy muhit qismlaridan biri oila muhiti bo'lib, aynan oila shaxsning g'oyaviy, siyosiy, iqtisodiy qarashlarini shakllantiruvchi, tevarak-atrofga, dunyoga munosabatlari tizimini, ya'ni dunyoqarashi, e'tiqodi, ehtiyojlari, qiziqishlari, ideallari, motivlari, hayotiy maqsadi yo'nalishini belgilovchi mikromuhit hisoblanadi. Undagi ma'naviy-axloqiy muhit shaxs imkoniyatlarini shakllantiradi, uning ijtimoiy borlik bilan munosabatlarini va muloqotini yuzaga keltiradi.

Shuningdek, mahalla jamoasi va oila a'zolari tomonidan shaxs xulq-atvorining ijtimoiy nazorat qilishning norasmiy turiga oilalarda, qarindoshlar, do'stlar va boshqalarni ma'qullash yoki qoralash

ijtimoiy nazorat qilishning rasmiy (institutsional) turiga – mahalla a'zolari va faollar yordamiga asoslangan faoliyatni keltirish mumkin.

Mahalla va oilalarda shaxs xulq-atvorini ijtimoiy nazorat qilish usullari ham o'ziga hos bo'lib, ijtimoiy nazoratning davlat nazorati, jamoatchilik nazorati, diniy nazorat va shunga o'xshash nazorat institutlaridan muayyan darajada farq qilishi bilan birga ularning funksiyalarini amalga oshirishda bog'lovchi muhit vazifasi ham bajaradi. Unda yakkalanish, izolyatsiya usullaridan foydalanish mutloq mumkin emas. Oilada shaxs xulq-atvorini ijtimoiy nazorat qilishda kuzatish, tashxis, reabilitatsiya, o'zini – o'zi nazorat qilish va korreksiyalash usullaridan o'rinli va manzilli foydalanish ijobiy samara beradi. Xususan, shaxs xulq-atvoridagi deviantlikka moyillik jihatlari korreksiyalash va oila, jamiyat muhitiga moslashtirishda, ijtimoiy moslashtiruv jarayonlarida reabilitatsiya usuli qo'l keladi. Bunda shaxs odatiy hayotga qaytish va jamiyatdagi ijtimoiy rollarini to'g'ri bajarishga tayyorgarlik ko'rish imkoniyati yuzaga keladi. Shaxs xulq-atvoridagi muayyan illatlarga moyillikka qarshi ijtimoiy nazoratning o'zini – o'z nazorat qilish ichki shaklini tadbiiq etish maqsadga muvofiq bo'lib, bunda shaxs o'z xatti-harakatini mustaqil ravishda tartibga soladi, uni umumiy qabul qilingan me'yorlarga moslashtiradi. Bunda axloqiy kategoriyalardan biri vijdon - nazoratning ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi.

Oilaga sog'lom va barkamol avlodni shakllantiruvchi asosiy bo'g'in. Unda yosh avlodning, ota-onasi, oilasi, Vatani, xalqiga munosib xizmat qiladigan komil inson bo'lib ulg'ayishi uchun oiladagi nazorat juda muhimdir. O'zbek oilalarida shaxsning xulq-atvori ijtimoiy nazorat ostiga olinadi. Yaxshi xulq insonlarni bir-biriga mehrli, hamkor va murosali bo'lishini ta'minlaydi. Agar har bir oilada farzand chiroyli xulq egasi qilib tarbiyalansa, ma'naviy-axloqiy muhit barqarorlashadi. Holbuki, jamiyatda paydo bo'lgan har qanday ijtimoiy illat shaxs axloqiy xulq-atvoriga xos me'yoriy mezonlarning buzilishidan, oila tarbiyasi izdan chiqishidan hosil bo'lishi sir emas.

Yangi tipdagi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi jarayonida axloqiy mezon va me'yorlarning roli ortib boradi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ayniqsa, ichki, o'z-o'zini boshqarish xatti-harakatlarda ko'proq ijobiy, axloqiy talablarga asoslanishi muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Biroq, bu tashqi regulyatorlarning, ya'ni, huquqiy, ma'muriy va tashkiliy normativlarning insonlar xatti-harakatlariga ta'sirining susayishi hisobiga amalga oshmaydi. Hozircha sharhlarning taraqqiyotidagi tengsizlik saqlanib turar ekan, ijobiy normalardan turli xil og'ish (amal qilmaslik) holatlari saqlanar ekan, tashqi ta'sirlar, shu jumladan taqiqlovchi axloqiy mezon

va me'yorlar ham saqlanib qoladi (Д.Бонхедфер, 2016). Masalaning mohiyati shundan iboratki, axloqiy mezon va me'yorlar strukturaci taraqqiyotida yetakchilik tendensiyasini to'g'ri aniqlab olish va xatti-harakatlarning normativ namunalarini axloqiy ongning g'oyaviy yo'nalishlari bilan uyg'unligini ta'minlash zarur. Bu nazorat uning shaxsiyatini, erkinliklarini cheklash, uning shaxsiyatiga daxl qilish emas balki, inson qalbi va ongi uchun ketayotgan kurash jarayonida ota-ona e'tiboridan uzoqlashish farzandlarimizni, yosh avlodni yot g'oyalar ta'siridan, destruktiv kuchlardan himoya qilishdir. Mahalla va oilalarda ijtimoiy nazoratning susayishi, yosh avlodni ixtiyorini to'liq o'ziga qo'yish oqibatida farzand turli buzuvq ishlar, ichish, chekish va ba'zi hayosiz amallarga qo'l urishi, bu kabi deviantlikka moyil yoshlar misolida jamiyatda nosog'lom muhit yuzaga kelishiga zamin yaratadi. Shu bois ham oila muhitida tarbiya masalasiga jiddiy e'tibor qaratilib farzandlar tarbiyasi mukammal bo'lmasa, tashqaridan xavf tug'diradigan atrof-muhit ta'siriga e'tibor qaratilmasa, oqibati yomon bo'ladi.

Ijtimoiy nazorat shaxsning tarbiyasida, xulq-atvorida, odamlar bilan bo'ladigan muloqoti, munosabatida katta ahamiyatga egadir. Shu ma'noda, sog'lom ma'naviy-axloqiy muhitni shakllantirish va ma'naviy idealni tarbiyalashda oilada ijtimoiy nazoratning o'rni muhim hisoblanadi. Iroda, burch va mas'uliyat oliy ma'naviy-axloqiy fazilatlar bo'lsada, ular muayyan ma'naviy muhitda shaxsning xulq-atvori va xatti-harakatida namoyon bo'ladi.

Shaxsning axloqiy mas'uliyati kishining jamiyat oldida va o'zi oldida xulqni tanlash va uni baholashi uchun hisob berishda namoyon bo'ladi. Axloqiy mas'uliyatning ikki o'lchovi bor. Birinchisi, ijobiy o'lchov bo'lib, u shaxsning jamiyat oldidagi vazifalarini ongli va ixtiyoriy e'tirof etishini, ikkinchisi salbiy o'lchov bo'lib, u qilmishlari uchun berilgan jazoning adolatli ekanligini anglashini ko'psatadi. Axloqiy mas'uliyat burchni aniq belgilash va uni shaxsiy ma'naviy boylikka aylantirish tariqasida namoyon bo'ladi.

Mas'uliyat kategoriyasi vijdon kategoriyasi bilan ham uzviy bog'langan. Vijdon singari u o'z-o'zini tiyishini, nazorat qilishni taqozo etadi. Axloqiy mas'uliyat kategoriyasi burch va vijdon kategoriyalariga nisbatan birmuncha keng, katta ijtimoiy ma'noga ega. Mutafakkirlar tomonidan adolat va barkamol inson g'oyalari mazmuni atroflicha ochib berilgani bois millat ma'naviyatining ajralmas qismiga aylandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich tashabbusi bilan "Uchinchi renessans" g'oyasining ilgari surilishi esa ma'rifatparvarlik g'oyalari targ'ibotini yangi bosqichga olib chiqdi. Ushbu g'oyalar millat axloqiy ideallari, normalariga mos bo'lgani sababli

jamoatchilik tomonidan ma'qullandi va qabul qilindi. Aksincha, millat axloqiy normalariga zid bo'lgan g'oyalar mamlakatimizda istiqomat qilayotgan shaxs tomonidan mudom rad etib kelinmoqda.

Etika shaxsning axloqiy mas'uliyatini jamiyatga zarur bo'lgan erkin irodani cheklash hamda shaxsning ijodiy faolligi, uning iroda erkinligi ifodasi deb talqin etadi. Shuni aytish kerakki, mas'uliyat – bu irodadan foydalana bilish mahoratidir. Axloqiy mas'uliyat o'zida burch talablari va ichki mayllarni jamlab, faqatgina xatti-harakat va uning oqibatlariga emas, balki uning motivlariga ham tatbiq etiladi. Xuddi shu motivlar kishi axloqi qiyofasining muhim xarakteristikasini tashkil etadi. (A.G.Гаджикурбанов, 2019).

Kishi xatti-harakatni tanlagani, xatti-harakat, uni bajarish vositalari va oqibatlari uchun ham, shuningdek, faoliyatsizlik uchun ham javobgardir. Bu axloqiy kategoriyaning shu qadar keng qo'llanishiga sabab, u shaxs xulqini belgilovchi eng muhim axloqiy omillardandir. O'z xatti-harakatlari uchun mas'uliyatdan voz kechish kishini erkinlik va individuallikdan mahrum qiladi. Ularning bir tomonini ikkinchi tomonidan ajratib bo'lmaydi. Erkinlik darajasi ayni paytda mas'uliyat darajasi hamdir. Mas'uliyatdan qo'rqish esa kurashdan voz kechishga turtki beradi. Mas'uliyatni anglash – faoliyatga turtki beradi.

Bozor iqtisodi hukmron bo'lgan bizning pespublikamiz kishilarning ijtimoiy va shaxsiy hayotlaridagi xatti-harakatlariga bo'lgan axloqiy mas'uliyatlari tobora kengayib bormoqda. Biroq hayotimizda axloqqa zid xollar ham uchrab turibdi. Bular jamoatchilik tomonidan qoralanibgina qolmay, balki o'zlari ham qilmishlaridan azob chekadilar. Har qanday jamiyatda axloqiy mas'uliyatni har qanday va har bir harakatga tatbiq etib bo'lmaydi. «Kishi harakatlari uchun, bu harakatlarni to'la iroda erkinligiga ega bo'lgan», ya'ni tanlash erkinligi axloqiy erkinlik bilan «amalga oshirgan taqdirdagina to'liq javobgardir» (B.M.Хвостов, 2020). Demak, axloqiy erkinlikning borligi yoki yo'qligi ijtimoiy erkinlikning borligi yoki yo'qligi bilan belgilanadi. Biroq ijtimoiy erkinlikning yo'qligi kishini qilmishlari uchun javobgarlikdan butunlay va to'la xalos qilmaydi. Chunki unda ong va iroda mavjud. Kishi hamisha o'z faoliyatining sababchisidir. U tashqaridan bo'ladigan ta'sirlarga ob'ektgina bo'lmay, balki irodaga, aqlga ega sub'ekt hamdir. U hamisha axloqan javobgardir.

Etika nuqtai nazaridan shaxsning axloqiy mas'uliyat darajasi faqat ob'ektiv omilga ega emas, ayni paytda sub'ektiv omillarga ham, ya'ni kishining, aqli, irodasiga ham bog'liq. Masalan, o'zining ma'naviy rivoji uchun zarur imkoniyatga ega bo'lgan odam o'zi yashab turgan davrda nimalarni bilishi mumkinligini anglashi shart.

Shaxs axloqqa zid xatti-harakatlari uchungina emas, balki o'z rivojining cheklanganligi uchun, o'zining nazariy xomligi uchun ham javobgardir.

Agar insonning burchi talablarni anglashi, axloqiy, huquqiy va boshqa muayyan holatlarga nisbatan ularni qo'llashi va amalga oshirishidan iborat bo'lsa, unda bu vazifa qay darajada bajarilayotganligi yoki uning bajarilishida inson qay darajada aybdorligi haqidagi masala – bu shaxsiy javobgarlik haqidagi masaladir. Shunday qilib mas'uliyat – bu shaxs faolligining (yoki xulqining) uning burchiga muvofiqligini anglashdir. Shu munosabat bilan mas'uliyat muammosi quyidagi masalalarni o'z ichiga oladi: kishining unga qo'yilayotgan talablarni bajarishga umuman qurbi yetadimi; u talablarni qay darajada to'g'ri tushungan va talqin qilgan; uning amaliy qobiliyatlari chegarasi qanchalik keng; kishi o'z faoliyatining natijasi uchun bog'liq bo'lmagan tashqi omillarning ta'sirini e'tiborga olgan holda javob berishi kerakmi; kishi bu oqibatlarni oldindan ko'ra olishi mumkinmi?

Rivojlangan mas'uliyat hissiga ega inson o'zini nazorat qilishga va o'z xatti-harakatlari oqibatini oldindan ko'rishga qodir. Shaxsning ijtimoiy vakolati va real imkoniyatlari keng bo'lsa, uning mas'uliyatlilik darajasi shunchalik katta bo'ladi.

Huquqiy nuqtai nazardan ham javobgarlik huquqbuzarlikni amalga oshirgan shaxsga nisbatan noqulay oqibatlarining vujudga kelishi sifatida tavsiflanadi. Bizga ma'lumki, bunday javobgarlikning intizomiy, ma'muriy, jinoiy, fuqarolik-huquqiy turlari mavjud. Bundan tashqari, davlatning xalqaro javobgarligi ham borligini eslatib o'tamiz.

Javobgarlikni amalga oshirish shakli muhofaza qiluvchi huquqiy munosabatlardir. Shuning uchun javobgarlik – bu bir tomondan, huquqbuzarga noqonuniy xatti-harakatlarni to'xtatish, huquqbuzarlik oqibatlarini bartapaf etish yoki tovon to'lash majburiyatlarini yuklovchi, ikkinchi tomondan, qonunni muhofaza etuvchi (davlat)ga yuqorida ko'psatilgan choralar amalga oshirilishini talab qilish huquqini beruvchi qonuniy munosabatlardir.

Axloq esa inson xulq-atvorini taptibga soluvchi, uning qilayotgan ishlari yo'nalishini «aniqllovchi» sifatida biron-bir axloqiy me'yorlar, qadriyatlar inson tomonidan qabul qilinsagina, uning shaxsiy qadriyatlariga aylansagina namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, shaxs axloqiy mas'uliyatining roli, ayniqsa mustaqil, demokratik jamiyatda buyukdir. Uning ahamiyati farovonlikka yaqinlashgan sari yuksalib boradi. Axloqiy asoslar tobora katta ahamiyat kasb etadigan hozirgi davrda har bir kishida o'z xatti-harakati va faoliyati uchun yuksak axloqiy mas'uliyat hissini tarbiyalash, demokratik fikrlash, harakat qilish

har bir yurtimiz fuqarosining eng muhim vazifadir. Bu muammoni to'g'ri hal qilish jamiyatda kishi xulqini axloqiy baholash sistemasi bo'lishini taqozo etadi.

Hozirgi zamon sivilizatsiyasining asosan G'arb jamiyatlarida namoyon bo'layotgan tendensiyalaridan biri jamiyat ma'naviy-axloqiy negizlarining degradatsiyasi bilan bog'liq. Rivojlangan mamlakatlarda jamiyat ma'naviy-axloqiy negizlarining yemirilishiga, eng avvalo, jahondagi demografik vaziyatning o'zgarishi zamin hozirladi. Darhaqiqat, XX asr demografik portlash davri bo'ldi. Xususan, 1960 yildan keyingi qirq yil mobaynida jahon aholisi ikki barobar o'sdi va 2020 yilga kelib 7.5 mlrd kishini tashkil etdi. Keyingi yillarda rivojlangan mamlakatlarda demografik o'sish sur'ati to'xtagan bo'lsa, rivojlanayotgan va qoloq mamlakatlarda bu tendensiya saqlanib turibdi. Masalan, Xitoy aholisi yiliga 1,2 foizga, Hindiston aholisi 1,5 foizga, Pokiston, Nigeriya, Bangladesh, Indoneziya kabi mamlakatlar aholisi esa 0,5-1,0 foizga o'sib bormoqda. Buning natijasida rivojlangan mamlakatlarda ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyoj o'sib ketayotir, o'zga mamlakatlarda esa ishchi kuchi eksporti kuchaymoqda. Turli irq, e'tiqod va madaniyatga mansub kishilarning G'arbga ommaviy muhojirligi davom etmoqda. Patrik Byukenenning ma'lumotlariga qaraganda, 1969 yili AQShda tub aholiga mansub bo'lmaganlar 9 millionni tashkil etgandi, Kichik Bush prezidentligi davriga kelib bu ko'psatkich 30 millionga yetdi. Xuddi shunday holni boshqa rivojlangan mamlakatlarda ham kuzatishimiz mumkin.

Ommaviy muhojirlik G'arb mamlakatlarining milliy madaniyatiga kuchli ta'sir o'tkazdi va o'tkazayotir. Millat tarixi, dini, qadriyatlariga munosabat tubdan o'zgarib bormoqda. Masalan, G'arb sivilizatsiyasining ma'naviy-axloqiy negizlarini, milliy ongning mazmunini belgilab bergan xristian diniga zid bo'lgan qadriyat va an'analar ildiz otmoqda. Buning oqibati o'laroq, axloq norma va prinsiplariga mutlaqo zid bo'lgan holatlar (bir jinsli oilalar, erkak va ayol fohishaligi, pornografik surat va filmlar namoyishi, axloqsizlikni targ'ib qiluvchi mediateka, kitoblar, filmlar va qo'shiqlar) falsafiy-huquqiy jihatdan asoslab berilmoqda.

G'arb jamiyatlarida chuqur ildiz otayotgan ko'plab oilaviy qadriyatlar haqida ham shunday deyish mumkin. Yigirmanchi asrga kelib G'arb jamiyatida oila inson uchun mutlaq qadriyat, bir umrga tuziladigan ijtimoiy institut vazifasini o'tamay qo'ydi. Buning ustiga bugungi kunda G'arb jamiyatida mutlaqo o'zgacha narsalar, an'analar, voqealar, orzu va ideallar, fazilat va xislatlar, munosabatlar qadriyat sifatida tan olinmoqda. Masalan, bu jamiyatda oilaviy individualizm, ya'ni alohida oila a'zosi manfaatlarining umumoilaviy manfaatlardan ustuvorligi yuzaga kelmoqda.

Tanqidiy nazariya tarafdorlari turmush tarzining bunday ko‘rinishlariga loqayd qarashni, milliylikdan ajralib qolgan allaqanday umumiy madaniyatga xayrixohlikni zo‘r berib targ‘ib qilmoqdalar. Bunday xatti-harakatlarga qarshi kurashishda milliy tarbiyaga bo‘lgan ehtiyoj tobora ortib boradi. «Milliy tarbiya millat vakillariga ayniqsa uning yoshlariga milliy meros, urf-odat, an‘ana va axloqdagi eng ilg‘or xususiyatlarni qadriyatlarini singdirish, o‘zligini anglatish, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini mustahkamlash, milliy manfaat, millat istiqboli uchun mas‘ullikni ongi va qalbiga singdirish, milliy zaminlardagi boy meros asosida ma‘naviy boyitish borasida olib boriladigan amaliy faoliyat yo‘nalishidir (C.Отамуродов, 2008). O‘zbek oilasida esa umumiy manfaatlar birlamchi rol o‘ynaydi, ularga zid sa’y-harakatlar axloqiy me‘yorning buzilishi deb hisoblanadi. Aynan shuning uchun ham O‘zbekistonda g‘arbona oilaviy individualizmni targ‘ib etuvchi qadriyatlarning qabul qilinishi haqida gap ham bo‘lishi mumkin emas. O‘zbekistonda shaxs turli g‘oyalarni o‘zlashtirishda ham axloq mezonlariga tayanadi.

Ma‘naviy inqiroz, xususan ma‘naviy-axloqiy buzilishlar bugun o‘zga xalqlar qadriyatlariga ham suqilib kirmoqda. Bu borada hushyor va ogoh bo‘lish, zamon bilan hamnafas yashash, jamiyatimizni asrash, aholi, ayniqsa, yoshlarimizning qalbi va ongiga yuksak ma‘naviyat tamoyillarini singdirish borasidagi dolzarb vazifalarni bajarish uchun barchamizning mas‘ulligimiz davr talabidir.

Ma‘naviy inqiroz ma‘naviy zaiflik ilmsizlik sababli vujudga keladi. Prezidentimiz ma‘naviy zaiflikdan qutilishning asosi sifatida ilm ma‘rifat ekanligini izohlab, «Ilmni qadrlang, ilmga intiling! Bir soniya vaqtingiz ham bekor o‘tmasin! Yoshlik – umrning eng bebaho davri. Ilm o‘tda yonmaydigan, suvda cho‘kmaydigan, hech kim sizdan tortib olmaydigan boylik ekanini aslo unutmang! Yuksak maqsadlar yo‘lida siz – yoshlar hal qiluvchi kuch bo‘lishingiz kerak. Men sizlarning zimmangizga yuklangan ana shunday ulkan mas‘uliyatni, tom ma‘nodagi tarixiy vazifani sharaf bilan ado etishingizga qat‘iy ishonaman» (Ш.Мирзиёев, Ўзбекистон ёшлар форуми, 2021 19-декабрь). Ma‘naviy zaiflik deganda «ma‘naviy hayot hodisasi, jamiyat, davlat yoki xalqning ma‘naviy masalalarda uyushmagani, ma‘naviyatga yetarli e‘tibor bermagani, tapbiya sohasida o‘zibo‘larchilikka yo‘l qo‘ygani natijasida sodir bo‘ladigan ijtimoy-g‘oyaviy ojizlik holati» (Муаллифлар, 2009). Ma‘naviy zaiflikka qarshi kurashish uchun, o‘g‘rilik, ikkiyuzlamachilik, yolg‘onchilik, hurmatsizlik, adolatsizlik, loqaydlik, dangasalik, befarqlik, tuhmat, hasad, bo‘hton, xoinlik

qat‘iyatsizlik, vijdonsizlik, hayosizlik, uyatsizlik, orsizlik, nomussizlik va hokazo illatlardan voz kechish kerak. XX asrning ikkinchi yarmida rivojlangan mamlakatlarda avj olgan iqtisodiy taraqqiyot va raqobat shaxslararo munosabatlardagi shafqatsizlikni asoslovchi g‘oyalarga ehtiyojni yuzaga keltirgan bo‘lsada aksariyat holatlarda hamjihatlik, o‘zaro yordam, muhtojlarga shafqat, mehr-oqibatlilik kabi axloqiy normalarni ulug‘lashga odatlangan mamlakatimiz fuqarolari tomonidan ma‘qullanmadi va o‘zlashtirilmadi desak mubolag‘a bo‘lmaydi albatta.

Ma‘naviy inqirozning yoshlar ongiga san‘at yoki madaniyat deb atalmish, aslida ushbu so‘zlarning asl mohiyatiga zid bo‘lgan g‘oyalarni targ‘ib qiluvchi madaniyatning ko‘rinishlari orqali kirib kelayotganligi sir emas. Mana shunday omillar asl ma‘naviyat va madaniyatni «ommaviy madaniyat» darajasiga tushib qolishiga sabab bo‘lmoqda.

Ma‘naviy inqirozning asosini axloqsizlik tashkil qiladi. Faylasuf olimi Sh.Qahhopova respublikamizdagi inqirozli holatlarni tahlil qilar ekan, axloqiy inqiroz haqida quyidagi fikrlarni bildiradi: «Bizning o‘z hududimizda ham odamlarni qul qilib chet ellarga sotish, giyohvandlik va uning «biznesi», uyushgan jinoyatchilik, poraxo‘rlilik kabi jinoiy faktlar yuzaga chiqayotgani, avlodlar (ota-onalar va farzandlar), tumanlar, oila a‘zolari orasida kelishmovchiliklar va ajrashuvlar mavjudligi ham sir emas» (Ш.Б.Қаххопова, 2009), deb, bu holatni axloqiy krizis deb ataydi. Falsafiy nuqtai nazardan yondashilsa, ma‘naviy inqirozning asosida yotgan bitta asosiy sabab bor, yaratish emas, faqat iste‘mol qilish psixologiyasiga asoslangan, ma‘naviylik, qalb, vijdon, axloq me‘yorlari bilan hisoblashmagan, foyda olishga yo‘naltirilgan quruq ilmiy tafakkurdir. Shuning uchun ilmiy tafakkurni boy, mazmunli, teran va chegaradiz obrazli tafakkur bilan uyg‘un darajaga yetkazish kerak. Bu natijaga erishish imkoniyatdan uzoq narsa emas, balki bu bizning milliy madaniy qadriyatlarimiz, boy tarix va ma‘naviyatimizni o‘zlashtirish, unga zamonga va milliy manfaatlariga mos qo‘shimchalar kiritish bilan bog‘liqdir.

Milliy-madaniy merosni tushunish, uni o‘zlashtirish o‘quvchi ongida o‘ziga xos milliy obrazli tafakkur shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Bu orqali biz egallagan bilimlarimiz va ko‘nikmalarimiz orqali tariximizni tushuna boshlaymiz. Masalan, oddiygina tarixiy filmni olaylik. Aytaylik, «O‘tkan kunlar» filmi. Filmni ko‘rganda XX asr boshidagi turmush tarzi, odamlarning o‘zaro munosabati, muomala, kiyinish, axloq-odob madaniyatlari haqida ongimizda tasavvur uyg‘onadi. Yoki «Navoiy» va «Yulduzli tunlar» romanini olaylik. Badiiy asarni o‘qiganimizda yozuvchining mahorati

bilan tasvirlangan tarixiy davr ongimizda aks etadi. Tarix va madaniyatni tasavvur qilish imkoniyatiga ega bo‘lamiz. Matnda obrazlarning rang-barangligi, manzaralarning bo‘yoqdorligi obrazli tafakkurning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Agar o‘quvchi, bir nechta davr va bir nechta davlat tarixiga oid badiiy asarlarni o‘qisa, unda tarixni ketma-ketlikda tasavvur qilish imkoniyati paydo bo‘ladi. Shuning uchun ham kitob o‘qishdan tobora uzoqlashib borayotgan bugungi kun yoshlarini, kerak bo‘lsa majburlab badiiy-tarixiy asarlarni o‘qitish kerak. Chunki badiiy-tarixiy asar beradigan bilim va ko‘nikmani boshqa hech qanday vosita bera olmaydi.

Inson hayot faoliyatining turli sohalaridagi sharoitlar o‘zgarishi yangi ijtimoiy aloqalar, mojarolar, betartibliklarni keltirib chiqarishi muqarrar. Ushbu yangi munosabatlarni tartibga solish, yangi vujudga kelayotgan mojarolarni hal qilish uchun shaxsning axloqiy sifatlarini rivojlantirish va boyitish talab qilinadi. Axloqiy o‘zgarishlarning sup’ati yana paydo bo‘layotgan ijtimoiy munosabatlar va aloqalarni tartibga solishning tarixiy zaruriyati bilan asoslanadi. Shu yo‘sinda, bozor iqtisodiyoti munosabatlari sharoitida yangi axloqiy jihatlari – adolat, shaxsning o‘ziga baho berishi, jamoaviylik va shaxsiylikning mutanosibligi vujudga keladi. O‘z navbatida jamiyatning axloqiy holati o‘z-o‘zidan turli ijtimoiy sohalarga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Jahonda ijtimoiy-madaniy globallashuv ko‘lami kengayib borishi aholining, ayniqsa yoshlar axloqiy immunitetini mustahkamlash, tahdidbardoshligini oshirish, axborot xurujlaridan himoya qilish masalalarini dolzarbligini kuchaytirib, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, axloqiy tamoyillarni singirishdek vazifalarni qo‘ymoqda. Hozirgi zamonda yoshlar tarbiyasida axloqiy tafakkur indikatorlari vositasini o‘taydigan, fundamental ahamiyat kasb etayotgan san’at asarlarini, milliy-madaniy merosni, ilmiy asarlarni o‘rganish va ularni o‘rgatish zarurati sezilmoqda. Shu nuqtai nazardan ham Sharqda yoshlarning axloqiy tafakkurining shakllanishida noyob yodgorliklar, she’riyat, nazm-navo, jamiyat va tabiat go‘zalligini madh qiluvchi misralar, pand-nasihatlar katta ahamiyat kasb etib, ular hayotiy ideal darajadagi falsafiy ta’limotlarni yaratilish mexanizmlarini takomillashtirish mezonlarini aniqlash ehtiyojini kuchaytirmoqda.

“Tarixiy merosni asrab-avaylash, o‘rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biridir” (Sh. Mirziyoyev, 2018). Chunki, buyuk allomalarimizning asarlarida yoshlar axloqiy kamoloti masalasiga alohida e’tibor qaratgan bo‘lib, inson ma’naviy-

axloqiy tarbiyasi bilan bog‘liq muammolarini ilmiy tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Buyuk mutafakkirlar qomusiy olimlarimiz Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy va boshqa mutafakkirlarning ilmiy merosi, ijtimoiy-falsafiy qarashlarida komil insonni tarbiyalash konsepsiyasi shakllantirilgan. «Komil inson g‘oyasi – Forobiyning axloqiy ideali sifatida fozil shahar rahbarida mujassamlashgan. Bu shaxsni alloma, imom, birinchi hukmdor, xalqning ustoz va donishmand faylasuf sifatida qaralgan, 12 axloqiy sifat va fazilatlar sohibi ekanligini ta’kidlab, komil insonni yaxshilik kamolotining eng yuqori darajasiga yetgan va baxt-saodat eshigining kalitini topgan odamdir, deb hisoblaydi» (M.Жакбапов, 2000). O‘z navbatida mutafakkir bularni quyidagicha tasniflaydi: «to‘rt muchasi sog‘, kuchli xotiraga ega, o‘tkir zehni, zukko qalb egasi, o‘z fikrini boshqalarga aniq-ravshan tushuntira oladigan, ma’rifatga chanqoq, taom yeyishda, ichkilikda, ayollarga yaqinlikda ochofatlikdan yiroq, akcincha, o‘zini-o‘zi tiya oladigan, haqiqatni sevadigan va haqiqatparvar kishilarni yoqtiradigan, yolg‘ondan qochadigan, nohaq jabrlanganlarga madadkor, o‘z qadrini biluvchi, ornomusli, mol-dunyo ketidan quvmaydigan, istibdod va jabr-zulmni qoralaydigan, adolatparvar, haqsizlik va razolatga murosasiz, rahmdil, qat’iyatli, sabotli, jur’atli, jasur, qo‘rqoqlik va hadiksirashdan uzoq bo‘lishi kerak» (Форобий, 1993).

Ijtimoiy axloq o‘zining murakkab qonunlari bo‘yicha rivojlanadi, o‘zgaradi. U har doim ham ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlar rivojlanishi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri determinantlashmaydi. Demokratiyaning rivojlanishi aholining «axloqiy tayyorgarligi» bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqligini Makiavelli ham ta’kidlab o‘tgan. Bularning barchasi ijtimoiy axloqning, hukmron axloqiy me’yorlarning, shaxs axloqiy ongida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarning real holatini aniq tahlil qilishni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, axloqiy mezon va me’yorlar – axloqiy ong va axloqiy amaliyotning tashkiliy-funksionol xarakteristikasini ifodalaydi. Barcha ijtimoiy normalarga xos bo‘lgan asosiy xususiyat – chegaralovchi, cheklovchi xarakteridir. Ular ruxsat etilgan xatti-harakatlarning oraliqini belgilab, erkin harakat qilish chegaralarini o‘rnatadi va shuning bilan birga aktiv faoliyat uchun o‘zida uyg‘otuvchi, rag‘batlantiruvchi kuchni ifodalaydi. Shuning uchun ham, ijtimoiy normalar ijtimoiy munosabatlar tizimini tartibga soluvchi ta’sir kuchiga egadir. Insonlarga xos bo‘lgan axloq normalari, uning mezonlari jamiyat taraqqiyoti va hayotiy ehtiyojlar ta’sirida o‘zgarib turadi. Ta’lim-tarbiya, ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishi insonlarning xatti-

harakatlarini, ular o'rtasidagi munosabatlarni ma'naviyat bilan bog'lanmagan tabiiy ehtiyojlar va imkoniyatlar chegarasidan tobora uzoqlashtirib boradi. Insoniyat paydo bo'libdiki hamisha odamiylik qiyofasini, fe'l-atvorda o'ziga yarashadigan xatti-harakatlarni, u yoki bu fazilatlarini mujassamlashtirishga intilgan (Б.Н.Чичерин, В.С.Соловьев, 2016).

Donishmandlarning «O'ziga boqma, so'ziga boq» degan hikmatlari ayni haqiqatdir. Taniqli tilshunos olim Skvorsov L.I. shunday izohlaydi: Til – inson tafakkuri maxsuli. U inson madaniyati, fikriy go'zalligini, yaxshi, ibratli, havas qilsa arziydigan fazilatlarini yuzaga chiqaruvchi vositadir. Muomala esa insonlarni bir-biriga bog'lovchi, yaqinlashtiruvchi, katta-kichik xayrli ishlarga undovchi fazilatdir. Insonning go'zal hayot kechirishida, jamiyat orasida o'z o'rnini topa olishida, boshqalarning hurmat-ehtiromiga erishishida muomalaning o'rni kattadir. Insonning shirinso'zligi kishining tarbiyalanganligidan guvohlik bersa, so'zga boyligi, chechanligi, ma'nodorligi uning o'qimishli, bilimdonligini ko'rsatadi. Go'zal muomala inson dilini qanchalik xushnud etsa, aksincha achchiq so'z, qo'pol muomala inson qalbini larzaga soladi. Shirin muomalada bo'lish ham katta san'at. Shirin so'z bilan kishining ishonchi va qalbini egallash mumkin. So'z, yuz va ko'z, tilning ko'rki hisoblanadi.

Muomala odobi boshqa kishilar qadr-qimmatini, izzatini joyiga qo'yishni, an'anaviy axloqiy-me'yoriy talablarini bajarishni taqozo etadi. Shuning barobarida, u insondagi yaxshi jihatlarni namoyon etishi, ko'zga ko'rsatishi bilan ham ajralib turadi. Uning eng yorqin, eng sermazmun va eng ifodali namoyon bo'lishi so'z, nutq vositasida ro'y beradi. So'zlash va tinglay bilish, suhbatlashish madaniyati muomalaning muhim jihatlari tashkil etadi. Shu bois muomala odobi o'zini, eng avvalo, shirinsuxanlik, kamsuqumlik, bosiqlik, xushfe'llik singari axloqiy me'yorlarda namoyon qiladi.

XULOSA

Axloqiy mezon va axloqiy me'yorni shakllantirish – inson faoliyatida muhim o'rin tutadi. Mazkur holatda axloq o'zining alohida xususiyatiga ega. Jamiyatda mutlaq, abadiy va o'zgarmas axloq yo'q. Axloq tarixan o'zgaruvchan va nisbiy mustaqillikka ega bo'lgan ijtimoiy hodisadir. Uning bu xususiyatlari umumiy axloqning tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan kasb axloqida ham yaqqol namoyon bo'ladi.

Ongning barcha boshqa turlari – siyosiy, huquqiy, estetik, diniy, iqtisodiy – jamiyat hayotida ob'ektiv, voqeiy tavsiflar, buyumlar, materiallar sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, siyosiy ong mezonlari – partiyalar faoliyatida, siyosiy manifestlar va hujjatlarda, huquqiy

ong mezonlari – qonunchilik dalolatnomalarida, estetik ong mezonlari esa – san'at asarlari va hokazolarda o'z aksini topadi. Shu bilan birga, «sof axloqiy», maxsus faoliyat mavjud emas, balki siyosiy, mehnat faoliyatining, harbiy qahramonliklarning, o'z kasbiga munosabatlarning chegarasi, ko'rinishi, axloqiy tomoni ham bor. Ammo axloq faoliyati ongning boshqa shakllaridan ajratilmaganligi, uni «sof ko'rinishida» bevosita kuzatish mumkin emasligi, «sezib bo'lmazligi» tufayli, axloqni umuman o'rganib bo'lmaydi deyish noto'g'ri. Har qanday jamiyatda axloqiy mezonlarga hurmat, o'rnatilgan tartiblarga qat'iy rioya qilish-bu rivojlanishning eng muhim omilidir. Biz hamma tan oladigan va bajarishi majburiy bo'lgan axloqiy mezonlar va qoidalar asosida yashaymiz. Bugungi globallashuv jarayonlarida inson o'z bilganicha, o'z o'lchovi bilan belgilab olgan qoida va me'yorlari bilan yashay olmaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. nauchniestati.ru. (б.д.). Примеры социального контроля: от общественного мнения до норм и санкций.
2. Бойтемирова. (2009). Шахс ахлоқий эҳтиёжларини шакллантириш омиллари. – Тошкент : Университет, 2009.
3. Бонхеффер Д. (2016). Этика (Т. 1). – Москва : Современное богословие, 2016.
4. Гаджикурбанов, А. Г. (2014). Этика Спинозы как метфизика морали. – Москва : Центр гуманитарных инициатив, 2018.
5. Гилинский, Я. (2015). Девиантность и социальный контроль в мире постмодерна: краткий очерк. // Общество в человеке (№ 3-4). – Т., 2015. – С. 88-99.
6. Жакбаров М. (2000). Комил инсон ғояси: тарихий-фалсафий таҳлил. – Тошкент : Абу Али ибн Сино, 2000.
7. Идоль. (2016). История этики в новой философии: От Античности до конца восемнадцатого столетия. – Москва : Либроком, 2016.
8. Каримов И. А. (2001). Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъулмиз (Vol. 9). Тошкент: Ўзбекистон.
9. Каримов, И. А. (2008). Юксак маънавият-енгилмас куч. – Тошкент : Маънавият, 2008.
10. Қаххорова, Ш. Б. (2009). Глобаллашув шароитида ҳаётнинг маъноси муаммоси. // Тафаккур (10). – Т., 2009.
11. Mirziyoyev, Sh. (2018). Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent : O'zbekiston, 2018.
12. Мирзиёев, Ш. (2021 19-декабрь). Ўзбекистон ёшлар форуми. – Тошкент : Янги Ўзбекистон.
13. Мирзиёев, Ш. (2023 23-декабрь). Маънавият бошқа соҳалардан олдинда юриши, янги кучга, янги ҳаракатга айланиши керак. – Тошкент : Халқ сўзи.
14. Муаллифлар. (2009). Маънавият: асосий тушунчалар изоҳли лугати. – Тошкент : Ғофур Ғулом, 2009.

15. Отамуродов С. (2008). Глобаллашув ва миллат. – Тошкент : Янги аср авлоди.
16. Саидов М. (2007). Ижтимоий ҳимоя: атамалар изохли луғати. – Тошкент, 2007.
17. Таджиханов. (2001). Юридик энциклопедия. – Тошкент : Шарқ.
18. Форобий, А. Н. (1993). Фозил одамлар шахри. – Тошкент : Халқ мероси.
19. Хвостов, В. М. (2016). Очерк истории этических учений. – Москва : Ком Книга, 2016.
20. Чичерин, Б. Н., Соловьев, В. С. (2016). О началах этики: Отзыв на книги Владимира Соловьева «Оправдание добра». // Из наследия мировой философской мысли (Т. 2). – Москва : Ленанд, 2016.
21. Шер, А. (2010). Ахлоқшунослик. – Тошкент : Ўзбекистон файласуфлар миллий жамияти.
22. Шувалова. (2018). Этика и этикет государственной и муниципальной службы. // Академический курс, 78.
23. Qaxharova, M., & Raximshikova, M. (2023). YOSHLARNING ONGU TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH VA TARBIYALASH MUMMOSI. Scientific journal of the Fergana State University, (1). – PP. – 37-37.
24. Qaxharova, M., & Raximshikova, M. (2023). YOSHLARNING ONGU TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH VA TARBIYALASH MUMMOSI. Scientific journal of the Fergana State University, (1). – PP. 37-37.
25. Qahhorova, M. M. (2023). The Role of the State Social Protection System in Stabilizing the Society Environment. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(8). – 43-49.
26. Qaxharova, M., & Raximshikova, M. (2023). YOSHLARNING ONGU TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH VA TARBIYALASH MUMMOSI. Scientific journal of the Fergana State University, (1). – PP. 37-37.
27. Monofovna, K. M. (2023). THE PROBLEM OF MORAL VIEWS IN THE WORK OF ALISHER NAVAI. Miasto Przyszłości, 41. – PP. 163-168.
28. Kakhkhorova, M. M., & Farfiyev, B. A. (2023). Family is the Cradle of Values That Ensure the Eternity of Life and Continuity of Generations. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 24, 55-60.
29. Qaxharova, M., & Raximshikova, M. (2023). PROBLEMA VOSPITANIYA I FORMIROVANIYA SOZNANIYA I MISHLENIYA MOLODEJI. Farg ‘ona davlat universiteti ilmiy jurnali, (1), 169-174.
30. Qakharova, M. (2023). BIOETHICS AS A PRACTICAL PHILOSOPHY OF HUMAN LIFE ACTIVITY. World Bulletin of Social Sciences, 23, 24-29.
31. Qaxxorova, M. (2022). Ma’naviy tarbiya strategiyasi. Islom tafakkuri.
32. Absattorov, B. M. (2019). Spiritual And Moral Development Of The Person In Modern World. Central Asian Problems of Modern Science and Education, 4(2), 167-173.
33. Absattorov, B. (2019). Shaxs ma’naviy-axloqiy barkamolligi mezonlarining falsafiy talqinlari. Vestnik Karakalpakskogo gosudarstvennogo universiteta im. Berdaxa.
34. MAMARASULOVICH, A. B. (2021). Barkamol yoshlarni tarbiyalashda ma’naviy-axloqiy mezon va me’yorlarning o’rni. ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY XABARNOMA.
35. Absattorov, B. M. (2022). Tasavvuf–o’z-o’zini takomillashtirish va haqiqatni bilish yo’li sifatida. Gospodarka i Innowacje., 30, 167-173.
36. Mamarasulovich, A. B., & Ismoil o’g’li, T. M. (2023). GENETIC MARKERS AND EVOLUTIONARY MANIFESTATIONS OF THE “NAFS” CONCEPT. World Bulletin of Social Sciences, 29, 16-19.

REFERENCES

1. nauchniestati.ru. (b.d.). Primeri sotsialnogo kontrolya: ot obshestvennogo mneniya do norm i sanktsiy.
2. Sh.Mirziyoyev. (2018). Milliy taraqqiyot yo’limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz. Toshkent: O’zbekiston.
3. A.G.Gadjikurbanov. (2014). Etika Spinozi kak metfizika morali. Moskva: sentr gumanitarnix initsiativ.
4. Abdug’anievich, K. I. (2008). Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. Toshkent: Ma’naviyat.
5. B.N.Chicherin, V.S.Solovev. (2016). O nachalax etiki: Otviz na knigi Vladimira Soloveva O provdanie dobro i pravo i нравstvennost. Iz naslediya mirovoy filosofskoy misli: (T. 2). Moskva: Lenand.
6. Boytemirova. (2009). Shaxs axloqiy ehtiyojlarini shakllantirish omillari. Toshkent: Universitet.
7. V.M.Xvostov. (2016). Ocherk istorii eticheskix ucheniy. Moskva: Kom Kniga.
8. D.Bonxeffe. (2016). Etika (T. 1). Moskva: Sovremennoe bogoslovie.
9. I.A.Karimov. (2001). Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas’ulmiz (Vol. 9). Toshkent: O’zbekiston.
10. Idol. (2016). Istoriya etiki v novoy filosofii: Ot Antichnosti do konsa vosemnadsatogo stoletiya. Moskva: Librokom.
11. M.Jakbarov. (2000). Komil inson g’oyasi: tarixiy-falsafiy tahlil. Toshkent: Abu Ali ibn Sino.
12. M.Saidov. (2007). Ijtimoiy himoya: atamalar izohli lug’ati. Toshkent.
13. Mualliflar. (2009). Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug’ati. Toshkent: G’ofur G’ulom.
14. S.Otamurodov. (2008). Globallashuv va millat. Toshkent: Yangi asr avlodi.
15. Tadjixanov. (2001). Yuridik ensiklopediya. Toshkent: Sharq.
16. Forobiy, A. N. (1993). Fozil odamlar shahri. Toshkent: Xalq merosi.
17. Sh.B.Qaxxorova. (2009). Globallashuv sharoitida hayotning ma’nosi muammosi. Tafakkur, 10.
18. Sh.Mirziyoyev. (2021 19-dekabr). O’zbekiston yoshlar forumi. Toshkent: Yangi O’zbekiston.
19. Sh.Mirziyoev. (2023 23-dekabr). Ma’naviyat boshqa sohalardan oldinda yurishi, yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak. Toshkent: Xalq so’zi.

20. Sher, A. (2010). Axloqshunoslik. Toshkent: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati.
21. Shuvalova. (2018). Etika i etiket gosudarstvennoy i munitsipalnoy slujbi. Akademicheskij kurs, 78.
22. Ya.Gilinskiy. (2015). Deviantnost i sotsialniy kontrol v mire postmoderna: kratkiy ocherk. Obshestvo v cheloveka(№ 3-4), 88-99.
23. Qaxxarova, M., & Raximshikova, M. (2023). YOSHLARNING ONGU TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH VA TARBIYALASH MUMMOSI. Scientific journal of the Fergana State University, (1), 37-37.
24. Qaxxarova, M., & Raximshikova, M. (2023). YOSHLARNING ONGU TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH VA TARBIYALASH MUMMOSI. Scientific journal of the Fergana State University, (1), 37-37.
25. Qahhorova, M. M. (2023). The Role of the State Social Protection System in Stabilizing the Society Environment. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(8), 43-49.
26. Qaxxarova, M., & Raximshikova, M. (2023). YOSHLARNING ONGU TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH VA TARBIYALASH MUMMOSI. Scientific journal of the Fergana State University, (1), 37-37.
27. Monofovna, K. M. (2023). THE PROBLEM OF MORAL VIEWS IN THE WORK OF ALISHER NAVAI. Miasto Przyszłości, 41, 163-168.
28. Kakhkhorova, M. M., & Farfiev, B. A. (2023). Family is the Cradle of Values That Ensure the Eternity of Life and Continuity of Generations. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 24, 55-60.
29. Qaxxarova, M., & Raximshikova, M. (2023). PROBLEMA VOSPITANIYA I FORMIROVANIYA SOZNANIYA I MISHLENIYA MOLODEJI. Farg 'ona davlat universiteti ilmiy jurnali, (1), 169-174.
30. Qakharova, M. (2023). BIOETHICS AS A PRACTICAL PHILOSOPHY OF HUMAN LIFE ACTIVITY. World Bulletin of Social Sciences, 23, 24-29.
31. Qaxxorova, M. (2022). Ma'naviy tarbiya strategiyasi. Islom tafakkuri.
32. Absattorov, B. M. (2019). Spiritual And Moral Development Of The Person In Modern World. Central Asian Problems of Modern Science and Education, 4(2), 167-173.
33. Absattorov, B. (2019). Shaxs ma'naviy-axloqiy barkamolligi mezonlarining falsafiy talqinlari. Vestnik Karakalpakskogo gosudarstvennogo universiteta im. Berdaxa.
34. MAMARASULOVICH, A. B. (2021). Barkamol yoshlarni tarbiyalashda ma'naviy-axloqiy mezon va me'yorlarning o'rni. ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY XABARNOMA.
35. Absattorov, B. M. (2022). Tasavvuf-o'z-o'zini takomillashtirish va haqiqatni bilish yo'li sifatida. Gospodarka i Innovacje., 30, 167-173.
36. Mamarasulovich, A. B., & Ismoil o'g'li, T. M. (2023). GENETIC MARKERS AND EVOLUTIONARY MANIFESTATIONS OF THE "NAFS" CONCEPT. World Bulletin of Social Sciences, 29, 16-19.